

---

## FARG'ONA TUMANINI O'ZIGA XOS MEGAPOLIS QIYOFASIGA KELTIRISH UCHUN YANA BIR QADAM

Barchamizga ma'lum bugungi kunda aholi soni tez o'sib bormoqda. Shunga ko'ra uy-joy, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi mavjud barcha qulayliklarga ega bo'lgan ko'p qavatli uylarni qurish jadallik bilan olib borilmoqda.

Farg'ona tumanida ham bu borada tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan.

Davlatimiz rahbarini 2021-yil 9-dekabr kungi «Yangi O'zbekiston» massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi 32-sonli Farmonlariga asosan Farg'ona tumanida barpo etilayotgan "Yangi O'zbekiston" massivida 12 ta 5 qavatli, 18 ta 7 qavatli jami 30 ta ko'p qavatli uylar qurilib o'z egalariga topshirish rejalashtirilgan.

Hududda barpo etilayotgan "Yangi O'zbekiston" massivi bugungi kunga kelib minglab yurtdoshlarimizni uy-joyli qilish, Farg'ona tumanini o'ziga xos megapolis qiyofasiga keltirish uchun yana bir qadam hisoblanadi.



Ayni vaqtda massiv hududdida 6 km masofadagi asfaltlashtirish ishlarining so'ngi bosqichlari amalga oshirilmoqda, "Farg'ona yo'l qurilish ta'mirlash" MCHJ tomonidan bugungi kun holatiga kengiligi 6 metr, uzunligi 3 km 950 metr masofadagi asfaltlashtirish ishlari yakunlandi. Bu ishlar uchun jami davlat byudjetidan 11 milliarddan ortiq mablag'lar ajratilishi ko'zda tutilgan.

### **[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Instagram](#) | [Youtube](#) | [Telegram](#)

2024-05-06 21:49:46